ZAMONAVIY O‘ZBEK QISSALARIDA OT OBRAZINI YARATISHDA INDIVIDUAL IJODIY USLUB

Abduqodirova Lobar Shavkatovna
e-mail: lj.com@mail.ru
ORCID: 0009-0008-2928-8550
telefon: +998-99-808-19-55

Annotatsiya: *Maqolada yozuvchining ijodiy uslubi, uning shakllanish omillari va adabiy faoliyatdagi o‘rni tahlil qilinadi. Yozuvchi qo‘llagan badiiy ifoda vositalari, tasviriy usullar, til imkoniyatlaridan foydalanish mahorati hamda estetik qarashlari uning uslubini belgilovchi asosiy komponentlar sifatida ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, hayotga munosabat, xarakter yaratish mahorati va biografik xususiyatlar kabi shaxsiy omillar ijodiy “ruh” va asarlardagi badiiy ohang bilan qanday uyg‘unlashishi muhokama qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *individual uslub, obrazli ifoda, jonli til, badiiy ta’sirchanlik, badiiy ifoda vositalari, ichki estetik muhit va pozitsiya.*

KIRISH

Ijodkorning individual uslubi deganda muallifning shaxsiy badiiy ifoda usuli tushuniladi. Uning asarlarida doimiy tarzda namoyon bo‘ladigan o‘ziga xos til, fikrlash va tasvirlash usullari, boshqacha qilib aytganda, yozuvchining shaxsiy “imzosidir”, ya’ni asarlari orqali darhol tanib olish mumkin bo‘lgan xususiyatidir.

Uslub muallifning tasviriy vositalarni tanlashi, xarakter yaratish mahorati, fikrlash yo‘li va estetik qarashlari bilan belgilanadi. Shaxsiy tajriba, biografik xususiyatlar va ijodiy qarashlar ham individual uslubni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ijodkorning individual uslubi – uning ijodiy “shaxsiy ovozi” bo‘lib, asarlarni boshqalardan ajratib turadigan o‘ziga xoslikdir.

TAHLIL

Tog‘ay Murodning aksar asarlarida millatning so‘nggi yuz yillikdagi tarixiy-falsafiy fojiasi badiiy umumlashtirilgan holda yoritiladi; unda turli madaniyatlarning to‘qnashuvi, zulmning asl qiyofasi ochib beriladi, xo‘rlangan milliy ruh hamda qadimiy madaniyat ohanglari badiiy ifoda orqali tiriltirilib, xalq ongiga qaytariladi. Ana shunday mavzularga qo‘l urish bilan birga uni qay yo‘sinda yoritish har bir yozuvchining mahoratiga, tanloviga bog‘liq.

“Adabiyotimizda shunday bir nochor ahvol borki, dunyoga chiqish uchun uchqunlanayotgan yozuvchilarni e’tiborga olmaymiz. Talantli yozuvchilar hech kimni oldiga arz qilib bormaydi, hech narsa so‘ramaydi, o‘z iste’dodiga ishonib yozaveradi.

Yozgan narsalari dunyo u yoqda tursin, xalqimizga ham durustroq yetib kelmaydi. Mana shu Tog‘ay Murodning asarlari. O‘zbek tilidagi go‘zal o‘xshatishlarni, milliylikni adabiyotga olib kirdi. Olib kirganda ham to‘mtoq shaklda emas, go‘zal bir bezaklar bilan olib kirdi. Afsus, biz shu narsaning qadriga yetolmadik”, – deydi yozuvchi Xolmuhammad Karim.

Tog‘ay Murod ijodi o‘zbek zamonaviy adabiyotida milliy ruh, xalqona ifoda va chuqur falsafiy mazmunni o‘zida uyg‘unlashtirgani bilan alohida ajralib turadi. Uning asarlaridagi o‘ziga xoslikni quyidagi jihatlar orqali ko‘rsatish mumkin:

Tog‘ay Murod asarlarida Milliy ruh va xalqona nafas yetakchilik qiladi: qishloq hayoti, yer, dehqon mehnati asosiy manba sifatida gavdalanadi. Qahramonlarining tili va dunyoqarashi xalqona, tabiiy, samimiy bo‘lib, o‘zbek xalqining mentaliteti, qadriyatlari va urf-odatlari chuqur aks etadi.

Uning asarlaridagi tirik til va badiiy ohang boshqa ijodkorlarnikiga o‘xshamaydi. Tasvirlash uslubi she’riy va ritmik, ammo ortiqcha bezaklardan xoli.

So‘zlarning xalq maqollari, hikmatli iboralar bilan uyg‘unlashishi matnga musiqiylik, ohangdorlik bag‘ishlaydi. Qahramonlarning ichki monologi, xalqona latifalar va hikmatli gaplar o‘quvchini bevosita milliy muhitga olib kiradi.

Realizm va ramziylikni uyg‘unlshtira olgan Tog‘ay Murod hayotiy voqealarni realistik asosda tasvirlasa-da, obrazlariga chuqur ramziy ma’no yuklaydi.

Tog‘ay Murod ijodining o‘ziga xosligi – xalq ruhini badiiy til bilan yuksak darajada ifoda etishida, oddiy hayot hodisalaridan umumjahoniy falsafa yaratishida, milliylikni esa badiiy universallik darajasiga ko‘tarishida namoyon bo‘ladi.

Jumanazar Beknazarning sodda, ammo tagdor tasvirlash uslubi o‘quvchini dam kuldirsa, dam yig‘latadi. “Qashqa yo‘rg‘a” qissasidagi voqeliklar o‘ta ravon, izchil yoritilgan. Til qo‘llash borasida esa Tog‘ay Murodga tenglashadigan adib Qashqadaryo shevasiga oid so‘zlardan o‘rnida foydalanadiki, shevasi yot kishi ham mazmunni kontekstdan anglay oladi.

– Shunqorlar! Chavandozlar! Amirlikning ko‘pkarisini boshlaymiz. Jigit bo‘lsang, jigitligingni ko‘rsat! Uloqning oyog‘ini egar boshiga o‘ramaysan, arqon bilan chiymaysan, uzangidan o‘tkazmaysan, chavandozga qamchi o‘qtalmaysan, uloqni halollab ayirasan. “Halol” demagunimcha, uloqni yerga tashlamaysan. Boshqasi bekor.

Badiiy tasvir vositalari bilan boyitilgan matnda keskin buyruq ohangi hukmron. Bu esa ko‘pkari musobaqasining qattiq qoidalari borligini ko‘rsatadi. «Jigit bo‘lsang, jigitligingni ko‘rsat!» kabi ibora bevosita o‘zbek xalqining jangovar ruhini aks ettiradi. Unda qahramonlik, mardlik, epchillik singari tushunchalar ko‘tarinki ruhda ifodalangan. Matnda nutq sodda va o‘tkir. Xalq tilida keng qo‘llaniladigan so‘zlar ishlatilgan: “Jigit”, “uloq”, “qamchi” kabi so‘zlar o‘zbek an’ana va urf-odatlarini eslatadi.

Matn jonli nutq shaklida ifodalangan. Bu yerda musobaqa jarayonidagi shovqin-suron, ishtirokchilar va tomoshabinlarning xatti-harakatlari, emotsional holatlari aniq aks ettirilgan. Matnda ko‘pkari maydonida kuzatiladigan dinamik vaziyatlar diqqat markazida turibdi. qahramonlar nutqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri keltirilgan. Bu esa o‘sha vaziyatning jonli tasvirini yaratishda xizmat qiladi. Har bir xitob harakatni ifodalashga, muayyan vaziyatni to‘g‘ri anglashga qaratilgan. Xitoblar (“ko‘zingga qara!”, “chapidan bor!”, “bovringni ko‘tar!”) voqeaning keskinligini oshiradi, hayajonli holatni kuchaytiradi. Shevaga xos bo‘lgan “Bovringni ko‘tar!”, “Taqimingga ol!” kabi iboralar xalqona obrazlilikni kuchaytiradi va matnga jonli ohang bag‘ishlaydi. So‘zlashuvlar bevosita maydondagi vaziyatga mos keladi. Bu holat o‘zbek xalqining ko‘pkari musobaqasidagi hayajonli onlarni to‘liq aks ettirish imkonini beradi. Qissani o‘qigan o‘qirman o‘zini ot ustida his etadi, ko‘pkarida ko‘radi, uloq ayirayotgandek bo‘ladi.

XULOSA

Obraz yaratish jarayoni har bir adibning estetik dunyoqarashi va badiiy mahorati bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, aynan shu jihatlar, xususan, ot obrazining talqini markaziy o‘ringa qo‘yildi. O‘zbek adabiyotida ot qadimdan nafaqat hayvonot olamining bir vakili, balki milliy ruh, ozodlik, kuch-qudrat timsoli sifatida talqin qilinib kelgan. Ot obrazining badiiy ifodasini o‘rganish orqali ijodkorning tasvir vositalarini qanchalik mahorat bilan qo‘llaganini va shu orqali qanday estetik g‘oya singdirilganini aniqlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoldorov D. Hozirgi adabiy jarayon: o‘zbek qissalari uslubi. Uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2019.
2. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
3. Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat. – Toshkent, 1970.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002.
5. Boltaboyev H. Adabiyot ensiklopediyasi. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2015.
6. Tog‘ay Murod. Ot kishnagan oqshom. Qissa. – Toshkent: Nurafshon kitob-ta’minot, 2022.
7. Jumanazar Beknazar. Qashqa yo‘rg‘a. // Sharq yulduzi, 2014. 5-son
8. Azimova D. Yangi o‘zbek doston (poema)larida davr va shaxs fojiasining poetik talqini (Oybek, Mirtemir, Zulfiya, S.Zunnunova, E.Vohidov, A.Oripov dostonlari misolida), Filol. fan. d-ri…diss. – Toshkent, 2020.
9. Karimov B. XX asr o‘zbek adabiyotida talqin muammosi, Filol. fan. dokt. diss. – Toshkent, 2002.